

"Identifikatsiya uchun iPhone 13 Pro" AKSIYASINI O'TKAZISH QOIDALARI

2024-yil 29-mart.

1. Mazkur Qoidalar **"Identifikatsiya uchun iPhone 13 Pro"** rag'batlantiruvchi Aksiyasini o'tkazish shartlarini, uning Ishtirokchilarini aniqlash, huquq va majburiyatlarni, shuningdek ushbu Qoidalarda ko'rsatilgan boshqa shartlarni tartibga solishni belgilaydi va A-Pay Elektron pul tizimida Aksiyani o'tkazish qoidalariga majburiy ilova hisoblanadi.
2. Aksiya nomi: **"Identifikatsiya uchun iPhone 13 Pro"** (keyingi o'rinlarda Aksiya deb yuritiladi). Aksiya "A-Pay" Elektron pul tizimining identifikatsiyalanmagan mijozlari o'rtasida mijozlarni identifikatsiyadan o'tishga chorlash, shuningdek, qiziqish uyg'otish va taniqlilikni oshirish maqsadida o'tkaziladi
3. Aksiya tashkilotchisi "CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION" MChJ A-Pay Elektron pul Tizimi Operatori hisoblanadi.
4. Aksiya o'tkaziladigan hudud – butun O'zbekiston Respublikasi.
5. Aksiya lotereya yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yin sanalmaydi, Ishtirokchilardan ishtirok etish uchun haq to'lashni talab qilmaydi.
6. Aksiyada ishtirok etish majburiy emas.
7. Aksiya o'tkazish va g'oliblarni aniqlash muddati: Toshkent vaqti bilan, 2024-yil -aprel soat 10:00 dan 2024-yil "22"-aprel soat 17:00 gacha. Aksiya g'oliblari 2024-yil 23-aprel kuni Toshkent vaqti bilan soat 16:00 da aniqlanadi. Aksiya g'oliblarini aniqlash kuni tashkilotchi tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan dam olish va bayram kunlarini hisobga olgan holda, shuningdek tashkilotchidan mustaqil bo'lgan holatlar yuzaga kelgan taqdirda o'zgartirilishi mumkin.
8. Aksiya ishtirokchisi maqomini olishga talabgorlar O'zbekiston Respublikasi hududida yashovchi 18 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasining muomalaga layoqatli fuqarolari, shuningdek "A-Pay" Elektron pul tizimining identifikatsiyadan o'tmagan foydalanuvchilari bo'lishi mumkin.
9. Tashkilotchi Aksiyani tashkil etishda xolislik, haqqoniylik, halollik va ochiq fikrni ta'minlaydi.
10. Ishtirokchilarni Aksiya Qoidalari haqida xabardor qilish Tashkilotchining <http://www.a-pay.uz> manzilidagi veb-saytida va (yoki) "A-Pay" mobil ilovasida tegishli ma'lumotlarni joylashtirish orqali, shuningdek Tashkilotchi xohishiga ko'ra, boshqa usullar bilan amalga oshiriladi. Aksiya Ishtirokchilari, Aksiya G'oliblari to'g'risidagi ma'lumotlar <http://www.a-pay.uz> veb-saytida e'lon qilinadi.
11. **"A-Pay" Elektron pul Tizimida Aksiya Ishtirokchisi maqomini olish shartlari:**
 - 11.1. Mobil ilovada "A-Pay" elektron pul tizimida ro'yxatdan o'tish yoki "A-Pay" Elektron pul tizimida identifikatsiyadan o'tmagan foydalanuvchi bo'lish.
 - 11.2. Ushbu Qoidalarning 7-bandida ko'rsatilgan Aksiyaning amal qilish muddati doirasida tegishli hujjatlarni taqdim etish orqali elektron hamyon egasining shaxsini aniqlash maqsadida "A-Pay" Elektron pul tizimida (bosqichma-bosqich ko'rsatmalarga muvofiq) masofadan turib Identifikatsiyadan muvaffaqiyatli o'tish.
12. Agar ushbu Qoidalarning 11-bandida nazarda tutilgan harakatlardan biri bajarilmagan bo'lsa, unda potensial ishtirokchi Aksiya shartlarini bajarmagan deb hisoblanadi va shunga mos ravishda Aksiya Ishtirokchisi maqomini olmaydi.
13. Ushbu Qoidalarning 11-bandida ko'rsatilgan barcha shartlarni bajargan shaxs Aksiya Ishtirokchisi maqomini oladi. Aksiyaning har bir Ishtirokchisiga shaxsiy ID beriladi. Aksiya Ishtirokchilari soni cheklanmagan.
14. Aksiyada qatnashish va/yoki sovrin olish huquqiga quyidagilar ega emas:

- 14.1. Aksiya davri boshlanishidan oldin va undan keyin identifikatsiyadan o'tgan "A-Pay" Elektron pul tizimi foydalanuvchilari;
- 14.2. Ushbu Qoidalarning 11-bandi talablariga javob bermaydigan Foydalanuvchilar.
- 14.3. Aksiya davomida "A-Pay" Elektron pul Tizimi Operatori bilan mehnat munosabatlarida bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek ularning yaqin qarindoshlari.
15. **Aksiya G'oliblarini aniqlash:**
 - 15.1. G'oliblar aksiya tashkilotchisi tomonidan Aksiyaning barcha shartlarini bajargan Aksiya Ishtirokchilari orasida tasodifiy tarzda aniqlanadi. Tashkilotchi G'oliblarni aniqlash uchun Tashkilotchi tomonidan tanlangan tasodifiy sonlar generatoridan foydalanish huquqiga ega. G'oliblarni aniqlash tartibi Tashkilotchi tomonidan belgilanadi.
 - 15.2. Aksiya Ishtirokchilari orasida 10 (o'n) nafar G'olib tanlab olinadi. G'oliblar belgilangan Ishtirokchilar ro'yxatidan Instagram ijtimoiy tarmog'ining "_ _ _" apay.uz sahifasida bo'lib o'tadigan jonli efirda "random-generator.ru" randomayzeri yordamida 2024-yil Toshkent vaqti bilan soat 16:00 da tasodifiy ravishda aniqlanadi.
 - 15.3. Randomayzer yordamida birinchi bo'lib tasodifiy tanlangan Aksiya Ishtirokchisi 10-o'rin sohibi hisoblanadi. Randomayzer yordamida ikkinchi bo'lib tasodifiy tanlangan Aksiya Ishtirokchisi 9-o'rin sohibi hisoblanadi Randomayzer yordamida uchinchi bo'lib tasodifiy tanlangan Aksiya Ishtirokchisi 8-o'rin sohibi hisoblanadi Randomayzer yordamida to'rtinchi bo'lib tasodifiy tanlangan Aksiya Ishtirokchisi 7-o'rin sohibi hisoblanadi Randomayzer yordamida beshinchi bo'lib tasodifiy tanlangan Aksiya Ishtirokchisi 6-o'rin sohibi hisoblanadi Randomayzer yordamida oltinchi bo'lib tasodifiy tanlangan Aksiya Ishtirokchisi 5-o'rin sohibi hisoblanadi Randomayzer yordamida yettinchi bo'lib tasodifiy tanlangan Aksiya Ishtirokchisi 4-o'rin sohibi hisoblanadi. Randomayzer yordamida sakkizinchi bo'lib tasodifiy tanlangan Aksiya Ishtirokchisi 3-o'rin sohibi hisoblanadi. Randomayzer yordamida to'qqizinchi bo'lib tasodifiy tanlangan Aksiya Ishtirokchisi 2-o'rin sohibi hisoblanadi. Randomayzer yordamida o'ninchi bo'lib tasodifiy tanlangan Aksiya Ishtirokchisi 1-o'rin sohibi hisoblanadi.
 - 15.4. Aksiya natijalari Instagram va A-Pay mobil ilovasida alohida post orqali e'lon qilinadi. Aksiya Ishtirokchilari Tashkilotchilar tomonidan e'lon qilingan xabarlarini mustaqil ravishda kuzatib boradilar, shuningdek, jamoalarda, ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy akkauntlarda, Operatorning veb-saytida, lekin ular bilan cheklanmagan holda, Aksiya olib borilishi, uning natijalari, kiritiladigan o'zgarishlar, sovrinlarni olish va ulardan foydalanish shartlari to'g'risida bilib boradilar. Tashkilotchi tomonidan joylashtirilgan e'lon/jo'natilgan xabar bilan tanishib chiqmaslik xavfi Ishtirokchi tomonida yotadi.
16. **Aksiyaning sovrin jamg'armasi** Tashkilotchining mablag'lari hisobidan shakllantiriladi. Aksiya sovrinlarining umumiy soni cheklangan. Sovrinlar soni 10 dona. Aksiya sovrinlarining tashqi ko'rinishi, ularning hajmi, shakli, rangi va boshqa xususiyatlari reklama materiallarida taqdim etilgan rasmlar va Ishtirokchilarning shaxsiy umidlari bilan mos kelmasligi mumkin.
17. **Sovrin jamg'armasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:**
 - 1-o'rin – iPhone 13 Pro Silver, 128 Gb, 1 dona;
 - 2-o'rin – 300.000 miqdorda bonusli APS;
 - 3-o'rin – 150.000 miqdorida bonusli APS;
 - 4-o'rin – "A-Pay" brendidan Yeng, qaymoqrang, o'lchami "oversize", 1 dona;
 - 5-o'rin – "A-Pay" brendidan Bananka, rangi ko'k yoki moviy (g'olibning tanloviga bog'liq), 1 dona;
 - 6-o'rin – "A-Pay" brendidan kurtka, rangi ko'k, o'lchami g'olibning tanloviga muvofiq (M,L,XL), 1 dona;
 - 7-o'rin – "A-Pay" brendidan mashinaning yon oynalari uchun parda, rangi qora, g'olibning tanloviga muvofiq Cobalt, Spark, Nexia 3, Gentra, Damas va Matiz kabi avtomobil markalari uchun, 1 dona;
 - 8-o'rin – "A-Pay" brendidan avtomobil uchun quyoshdan saqlovchi ekran, o'lchami universal, 1 dona;
 - 9-o'rin – "A-Pay" brendidan termos, rangi oq, hajmi 500 ml, 1 dona;
 - 10-o'rin – Xudi Apayman, rangi ko'k, o'lchami "oversize", 1 dona;

18. Tashkilotchining texnik imkoniyatlariga asoslangan holda, Tashkilotchi Ishtirokchining Aksiyada ishtirok etish holati vijdoniyligini mustaqil ravishda baholaydi.
19. Agar Tashkilotchiga ishtirokchini rag'batlantirish uchun da'vogarlar orasidan chiqarib tashlaydigan faktlar ma'lum bo'lsa (A-Pay Elektron pul tizimida Aksiyalarni o'tkazish qoidalariga rioya qilmaslik, firibgarlik, Aksiyada insofsiz ishtirok etish, o'zi to'g'risida yolg'on ma'lumotlarni qasddan taqdim etish va h. k.), bunday shaxslar Aksiya ishtirokchilari orasidan chiqarib tashlanadi va sovrinni olish huquqidan mahrum qilinadi.
20. Tashkilotchi quyidagi holatlarda g'olibga mukofotni bermasligi va uning qiymatini qoplamasligi mumkin:
 - 20.1. Agar g'olib sovrinlarni qo'lga kiritishda imzo qo'yishdan va/yoki boshqa qonuniy ahamiyatga ega harakatlarni, shu jumladan kerakli hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortsa.
 - 20.2. Agar g'olibni u sovrin olganligi to'g'risida xabardor qilish imkoniyati yo'q bo'lsa, g'olibning raqami bloklangan va/yoki tarmoq doirasidan tashqarida, yoki Kompaniyadan mustaqil bo'lgan boshqa sabablarga ko'ra g'olib qo'ng'iroqqa javob bermasa va/yoki aloqaga chiqmasa.
 - 20.3. Agar g'olib tomonidan Aksiyada ishtirok etish shartlarining buzilish holatlari aniqlangan bo'lsa.
21. Aksiya Tashkilotchisi quyidagilar uchun javobgar emas:
 - 21.1. Aksiya Ishtirokchilarining Aksiya shartlari yoki Tashkilotchi tomonidan <http://www.a-pay.uz> saytida joylashtirilgan Aksiya g'oliblari ro'yxati bilan tanishish imkoniyati yo'qligi;
 - 21.2. Aksiya Ishtirokchilari tomonidan ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaslik/o'z vaqtida bajarmaslik;
 - 21.3. Aksiya g'oliblari tomonidan mukofot o'z vaqtida olinmaganligi yoki ularni olishda bosh tortilganligi uchun.
22. Aksiyada ishtirok etib, Ishtirokchi ushbu Qoidalar bilan to'liq tanishligini va shartlarga roziligini tasdiqlaydi va quyidagilarga rozilik beradi:
 - 22.1. Aksiya g'oliblarini ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan tartibda aniqlash;
 - 22.2. Uchinchi shaxslar tomonidan Tashkilotchiga nisbatan har qanday da'volar yuzaga kelgan taqdirda, Ishtirokchi uchinchi shaxslarning huquqlarini buzganligi sababli, aksiya davomida ishtirokchi bunday nizolarni mustaqil ravishda hal qilish va Tashkilotchini uchinchi shaxslarning shikoyatlari va da'volaridan ozod qilish mas'uliyatini o'z zimmasiga oladi;
 - 22.3. Aksiyada g'alaba qozongan Aksiya Ishtirokchisi to'g'risidagi ma'lumotlarni <http://www.a-pay.uz> saytida joylashtirish;
 - 22.4. Tashkilotchi tomonidan shaxsiy ma'lumotlarni, shu jumladan maxsus va biometrik ma'lumotlarni qayta ishlash, Tashkilotchi tomonidan Aksiya bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish maqsadida uchinchi shaxslarga shaxsiy ma'lumotlarni taqdim etish;
23. Sovrin topshirilishi G'olibning shaxsini tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasi taqdim etilgandan so'ng, ma'lumotlar to'liq mos kelganda amalga oshiriladi. Sovrinni olgandan so'ng, g'olib barcha kerakli (ro'yxatdan o'tish jarayoni, sovrinni olish bilan bog'liq) hujjatlarni imzolash majburiyatini oladi. Aksiya G'olibining zarur hujjatlarni imzolashdan va/yoki boshqa yuridik ahamiyatga molik harakatlarni amalga oshirishdan bosh tortishi, shu jumladan talab qilinadigan hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortishi, shu jumladan shaxsiy ma'lumotlar bilan cheklanmagan holda, G'olibning sovrin olishdan bosh tortishi deb hisoblanadi.
24. Sovrinlar Aksiya g'oliblari aniqlangandan keyin 20 (yigirma) ish kunidan kechiktirmay beriladi. Tashkilotchi sovrinni G'olibga qanday topshirilishini mustaqil ravishda belgilaydi va aksiya ishtirokchisi o'z navbatida sovrinni tashkilotchi tomonidan belgilangan tartibda olish majburiyatini oladi.
25. O'zining amaldagi qonunchiligida belgilangan soliq va yig'implarni to'lash bo'yicha majburiyatlarni sovrinni olgan shaxs o'z zimmasiga oladi.
26. Sovrinni pul yoki boshqa ekvivalent bilan almashtirishga yo'l qo'yilmaydi. Sovrinlar almashtirilmaydi va qaytarilmaydi.
27. Aksiyaning barcha Ishtirokchilari Aksiyada ishtirok etish bilan bog'liq barcha xarajatlarni (shu jumladan Internetga kirish bilan bog'liq xarajatlarni) mustaqil ravishda qoplaydilar.
28. Tashkilotchi o'z ixtiyori bilan bir tomonlama ravishda, istalgan vaqtda, oldindan ogohlantirish va tushuntirishlarsiz, Aksiyani to'liq yoki vaqtincha to'xtatib turish, shuningdek ushbu Qoidalar har



qanday o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Aksiyaning muddatidan oldin tugatish, to'xtatib turish, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish da'volarni keltirib chiqara olmaydi. Aksiya muddatidan oldin tugatilgan taqdirda Tashkilotchi bu haqda amaldagi va (yoki) potensial ishtirokchilarni tegishli ma'lumotlarni o'zining <http://www.a-pay.uz> rasmiy veb-sayti va (yoki) mobil ilovada joylashtirish orqali ommaviy ravishda xabardor qilishga majburdir.

29. Tashkilotchi ixtiyoriy ravishda tanlov bo'yicha tegishli ma'lumotlarni Facebook, Instagram, Telegram ijtimoiy tarmoqlariga joylashtirish huquqini o'zida saqlab qoladi.
30. Tashkilotchi ushbu Qoidalaridan A-Pay Elektron pul tizimida Aksiyalarni o'tkazish qoidalaridan chetga chiqadigan tushunmovchiliklar, noto'g'ri talqinlar, taxminlar yoki fikrlar natijasida kelib chiqadigan har qanday da'vo yoki zarar uchun javobgar emas.
31. Agar biron bir savol, tushunmovchilik yoki boshqa bahsli vaziyatlar yuzaga kelsa, Aksiya ishtirokchisi Tashkilotchiga murojaat qilib, ularni aniqlashtirish / hal qilish uchun barcha choralarni ko'rish kerak.
32. Tashkilotchi o'z majburiyatlarini bajarishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan fors-major holatlari, shu jumladan toshqinlar, yong'inlar, ish tashlashlar, zilzilalar yoki boshqa tabiiy omillar, ommaviy epidemiyalar, davlat yoki huquqni muhofaza qilish organlarining buyruqlari va Tashkilotchiga bog'liq bo'lmagan boshqa obyektiv sabablar yuzaga kelgan taqdirda, Tashkilotchi aksiya ishtirokchilari oldida javobgar bo'lmaydi.
33. Ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish Aksiya ishtirokchisining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga, elektron pochta (shaxsiy hisob, telefon, shuningdek ijtimoiy tarmoqlar va h.k.) orqali ushbu Aksiya va Tashkilotchining boshqa Aksiyalariga tegishli reklama va yozishmalarni olishga roziligini anglatadi. Aksiyaning har bir ishtirokchisi o'z fotosuratini, video tasvirini, u bilan suhbatni Tashkilotchining veb-saytida va(yoki) mobil ilovada, reklama materiallarida, ijtimoiy tarmoqlar sahifalarida va hokazolarda joylashtirish va nashr etishga o'z roziligini bildiradi. Ishtirokchining roziligi Tashkilotchiga cheksiz muddatga va hech qanday mukofot to'lamasdan beriladi.
34. Ishtirokchining ushbu Qoidalarda ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirishi, Ishtirokchining Oferta hisoblanmish "A-Pay" Elektron pul Tizimidagi Aksiyalarni o'tkazish qoidalariga to'liq va shartsiz roziligini anglatadi.
35. Ushbu Qoidalar bilan tartibga solinmagan boshqa holatlarda, "A-Pay" Elektron pul Tizimida Aksiyalarni o'tkazish qoidalari qo'llaniladi. Qoidalar va/yoki ushbu Qoidalar bilan tartibga solinmagan masalalarni noaniq talqin qilishga imkon beradigan holatlar yuzaga kelganda, bunday talqin va/yoki tushuntirish to'g'risida yakuniy qaror bevosita va faqat Tashkilotchi tomonidan qabul qilinadi.
36. Agar biron sababga ko'ra Aksiya g'oliblari mukofot olishdan bosh tortsa yoki rad etsa, Tashkilotchi Aksiya sovrindorlari (g'oliblari) umumiy sonini tegishli ravishda kamaytirish huquqini o'zida saqlab qoladi.
37. Ushbu Qoidalarda nazarda tutilmagan barcha boshqa holatlarda Aksiya tashkilotchisi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq amal qiladi. Tomonlarning javobgarlik choralari, shuningdek nizolarni hal etish tartibi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq belgilanadi.

